**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori**
**G.I. Muxamedov**
**________________**
**2023 yil “29” _08_____**

# MOLIYA ASOSLARI
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100000 – Ta’lim** |
| **Ta’lim sohasi:** | **110000 – Ta’lim** |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | **60411200-Menejment** |

**Chirchiq – 2023**

| Fan/modul kodi FINANC6 | | O'quv yili 2025-2026 | Semestr 6 | ECTS - Kreditlar 6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 6 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Moliya asoslari | | 120 | 60 | 180 |

2.

## I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda moliya tizimi, korxona moliyasi davlat moliyasi, O'zbekistan Respublikasida byudjetlashtirish jarayoni davlat byudjetining gazna ijrosi to'g'risidagi nazariy-amaliy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ularda iqtisodiy modernizatsiyalashni chuqurlashtirish jarayonida moliya tizimidagi moliyalashtirish sohasidagi jumladan ijtimoiy byudjetlashtirish, byudjet ijrosi natijakorligini oshirish borasida malakaviy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - moliyaning mohiyati va vazifalari, moliyaviy siyosat, davlat moliyasi, korxona moliyasi, uy xo'jaligi moliyasi va xalqaro moliya to'g'risida iqtisodiy tasavvurlarni shakllantirish, davlat byudjetini qabul qilish va ijrosini ta'minlashning me'yoriy- huquqiy asoslarini takomillashtirish talablarini, byudjet soliq siyosati maqsadi tarkibi va ustivor yo'nalishlarini tahlil etish, davlat byudjeti gazna ijrosining xususiyatlari, gaznachilik faoliyatini boshqarish xususiyatlarini amaliy takomillashtirish yo'nalishlari bilish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni shakllantirishdan iborat.

## II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari .**

Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati.Moliyaning funksiyalari. Takror ishlab chiqarish va moliya. Moliya taraqqiyoti Moliyaviy savodxonlikning mohiyati.Moliyaviy savodxonlik asoslari fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Moliyaviy savodxonlikni oshirishda jahon tajribasi va uning O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishning milliy dasturini ishlab chiqishda qo'llash. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Moliyaning funksiyalari. Takror ishlab chiqarish va moliya. Moliya taraqqiyoti. Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliya va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi. Mamlakat

| | |
|---|---|
| | iqtisodiyotining holati va moliya. Moliyaning moddiy mazmuni. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. Moliya va baho. Moliya va kredit. Moliya va ish haqi. Moliya va soliq. Ularning umumiy va farqi jihatlari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi.<br><br>**2-mavzu. Moliyaviy siyosat.**<br>Moliyaviy siyosat. Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari (yo'nalishlari). Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari. Moliyaviy siyosatning maqsadi. Korxona moliyav siyosati. Davlatning moliyaviy siyosati. Moliyaviy munosabatlar rivojlanishining yo'nalishlari. Moliyaviy siyosat konsepsiyalari. Moliyaviy siyosatda taqsimlash munosabatlari. Moliyaviy siyosatning tarkibi. Byudjet siyosati. Pul-kredit siyosati. Investitsiya siyosati. Ijtimoiy moliyaviy siyosat. Boj siyosati. Moliyaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari. Hozirgi bosqichdagi moliya siyosati va uning o'ziga xos xususiyatlari. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi<br><br>**3-mavzu. Moliya tizimi .**<br>Mamlakatning moliya tizimi: mohiyati va mazmuni. Moliya tizimi sohalari va bo'g'inlari. Davlat moliyasi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi, uy xo'jaliklari moliyasi va ularning o'zaro bog'liqdigi. Moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar. Moliyaviy tizim funktsiyalari va ularning evolyutsiyasi. Moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar. Moliyaviy bozor stavkalari. Moliyaviy vositachilar. Moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tartibga solish. Markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va taksimlash tartibi. Notijorat sektor faoliyatining masshtablari. Xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi. Moliya tizimining sohalari va bo'g'inlari. Yetakchi xorijiy mamlakatlarning davlat moliya tizimi.<br><br>**4-mavzu. Moliyaviy boshqaruv.**<br>Moliyaviy boshqaruvning mohiyati, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy boshqaruv ob'ektlari va dastaklari. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning metodologik prinsiplari va shakllari. Moliyaviy oqimlarni boshqarish.Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash; dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni qabul qilish; moliyaviy resurslarni jalb kilish. Xisob palatasi. Moliya vazirligi va uning kuyi, jumladan, Faznachilik tizimi organlari. Markaziy bank. Moliyaviy oqimlarni boshqarish. Tijorat va notijorat moliyaviy oqimlari. Moliyaviy oqimning samaradorligini aniqlash. |

**5-mavzu. Moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish.**

Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni moliyaviy tartibga solish. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirish va bashoratlash. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning xarakat doirasi va vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan uslublar. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining bosqichlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari: strategik moliyaviy rejalashtirish; joriy moliyaviy rejalashtirish, funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari

**6-mavzu. Moliyaviy nazorat.**

Moliyaviy nazorat: mazmuni, shakllari va metodlari, sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy nazoratning ikki yo'nalish va ularning o'zaro bog'liqligi. Qamrab olish sohasi. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazorat o'z ichiga oluvchi tekshiruvlar. Moliyaviy nazorat tizimining yaxlitligi va uning elementlari. Moliyaviy nazoratning vazifalari. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning prinsiplari. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari. Nodavlat moliyaviy nazorat.

**7-mavzu. Davlat byudjeti**

Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari va ahamiyati. Davlat byudjetining daromadlari. Davlat byudjetining xarajatlari. Byudjet defitsiti va uni moliyalashtirish. Davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari. Davlat byudjetai orqali yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Davlat byudjetining mohiyati. Davlat byudjetining davlat ixtiyoridagi markazlashgan pul fondi ekanligi. Davlat byudjeti — huquqiy kategoriya sifatida. Davlat byudjetining umumiy moliyaviy munosabatlar tarkibidagi o'rni. Byudjetning mamlakat moliya tizimining boshqa bo'g'inlari bilan o'zaro munosabatlari.

**8-mavzu. Byudjet daromadlari.**

Davlat byudjeti daromadlari tushunchasi va tarkibi. Byudjet daromadlarining mazmun-mohiyati va ularni shakllantirish prinsiplari. Byudjet daromadlarining klassifikatsiyasi. Soliqlar va soliq tizimi. Umumdavlat soliqlari. Mahalliy soliqlar va yig'imlar O'zbekiston soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Davlat byudjetining soliqli daromadlari. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat

byudjetining soliqli daromadlar tushumining ijrosini ta'minlash. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlar tushumini ko'paytirish. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini rivojlanish bosqichlari Davlat byudjeti daromadlari ijrosida tasnifdan foydalanish.

**9-mavzu. Byudjet xarajatlari.**

Byudjet xarajatlari: mazmun-mohiyati, tarkibi, tuzilmasi va klassifikatsiyasi. Byudjetdan moliyalashtirish: ta'rifi, prinsiplari, shakllari va metodlari. Byudjet normalari (me'yorlari), xarajatlar smetasi va byudjet krediti. Byudjet xarajatlarini sarflash masalalari va vazifalari. Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish. Byudjet xarajatlari, byudjetdan moliyalashtirishning usullari, tamoyillari va shakllari. Byudjetdan moliyalashtirish metodlari. Davlat byudjetining ijtimoiy-madaniy tadbirlarga xarajatlari. Davlat byudjetining aholini ijtimoiy himoyalashga xarajatlari. Davlat byudjetining iqtisodiyotga xarajatlari. Byudjet xarajatlarini sarflash masalalari. Markazlashtirilgan investitsiyalarga xarajatlar. Davlat byudjetining boshqaruvga va boshqa sohalarga xarajatlari.

**10-mavzu. Byudjet tizimi va byudjet tuzilmasi.**

Byudjet tizimi: ta'rifi, prinsiplari, boshqarish sohasidagi vakolatlar. Byudjet tuzilmasi va klassifikatsiyasi Sug'urta haqida tushuncha. Sug'urtaning iqtisodiy mohiyati. Sug'urtaning rivojlanish bosqichlari. Sug'urtaning huquqiy asoslari. Mol-mulk sug'urtasi. Shaxsiy sug'urta va uning turlari. Javobgarlik sug'urtasi. Sug'urta bozori. Qayta sug'urta. Sug'urta bozorining mohiyati tarkibi va turlari. Sug'urta syurveyerlari, aktuariylari, adjasterlari va assistanslari.Mol-mulk sug'urtasi. Shaxsiy sug'urta va uning turlari. Transport vosatalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish. Qayta sug'urta qilishning mohiyati va turlari.

**11-mavzu. Byudjet jarayoni.**

Davlat byudjetining mohiyati, funksiyalari, bosqichlari, prinsiplari. Byudjet loyihasini tuzish. Byudjetni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish). Byudjetni ijro etish. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlash Davlat byudjetining daromadlari. Byudjet daromadlarining mazmun-mohiyati va ularni shakllantirish prinsiplari. Davlat byudjetining tarkibiy tuzilishi va ularning klassifikatsiyasi. Byudjetining xarajatlari: mazmun-mohiyati, tarkibi, tuzilmasi va klassifakatsiyasi.Byudjetdan moliyalashtirish ta`rifi, prinsiplari, shakllari va metodlari. Byudjet normalari(meyorlari), xarajatlar smetasi va byudjet krediti. Byudjet defisiti.

**12-mavzu. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari**

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Byudjet jarayoni: ta`rifi, bosqichlari, vazifalari. Ishtirokchilari va prinsiplari. Byudjet loyihasini tuzish. Byudjetni muhokama qilish (ko'rib chiqish) va tasdiqlash (qabul qilish). Byudjetni ijro etish. Byudjetning ijrosi to'g'risidagi hisobot va uni tasdiqlash. Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Pensiya jamg'armasi.Bandlikni qo'llab-quvvatlash Davlat jamg'armasi. Ijtimoiy ta'minotning iqtisodiy asoslari va prinsiplar. Davlat pensiyasi va jamg'arib boriladigan pensiya fondi. Ijtimoiy nafaqalar.

**13-mavzu. Davlat krediti**

Kredit va uning mazmuni. Iqtisodiyotda kreditning roli. Kredit munosabatlari va ularning turlari. Kreditning tamoyillari. Kreditning ob'ektlari va sub'ektlari. Kreditning funksiyalari. Kredit qonunlari. Kredit turlari va shakllari. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funksiyalari. Davlat krediti klassifikatsiyasi. Davlat kreditini boshqarish. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarzlar. Davlat - garant (kafil) va kreditor sifatida. Davlat qarzlarini boshqarish. Davlat kreditining moxiyati va funksiyalari. Davlat kreditining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, davlat qarzi va davlat kreditini boshqarish. Davlat qarzi tushunchasi iqtisodiy mazmuni va tarkibi. Davlatning qimmatli qog'ozlari va ularni tasniflanishi. Davlat qarzini boshqarish.

**14-mavzu. Uy xo'jallklari moliyasi**

Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi. Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari daromadlari. Uy xo'jaliklari xarajatlari . Jamg'armalarni shakllantirish va yo'naltirish. Uy xo'jaligining funksiyalari. Uy xo'jaligini daromadlarining shakllanish manbalari va o'zgarish dinamikasi. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida xonadon xo'jaliklari moliyasi. Uy xo'jaliklarida moliyaviy qarorlar qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari daromadlari. Uy xo'jaliklari xarajatlari.Jamg'armalarni shakllantirish va yo'naltirish

**15-mavzu. Xalqaro moliya.**

Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendensiyalari. lahon banki va Xalqaro valyuta fondi. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. To'iov balansi va uni tartibga solish yo'llari. Xalqaro hisob-kitob shakllari. Xalqaro kredit. Xalqaro moliya: mazmuni va tashkiliy tamoyillari. Jahon moliyaviy muhiti va unda xalqaro moliya munosabatlarining tutgan o'rni. Jahon banki va Xalqaro valyuta

fondi. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. To'lov balansi va uni tartibga solish yo'llari. Xalqaro hisob-kitob shakllari. Bank o'tkazmasi. Xalqaro bank krediti. Xalqaro tijorat krediti. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Milliy iqtisodiyot rivojlanishida xalqaro moliya munosabatlarining roli va ahamiyati. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. O'zbekistonning xalqaro moliya munosabatlariga integratsiyalashuvi

**III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari..
2. Moliyaviy siyosatda taqsimlash munosabatlari.
3. Markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarini shakllantirish va taksimlash tartibi .
4. Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash; dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni qabul qilish; moliyaviy resurslarni jalb qilish.
5. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan uslublar.
6. Moliyaviy nazorat o'z ichiga oluvchi tekshiruvlar.
7. Davlat byudjetining xarajatlari.
8. O'zbekistan Respublikasi soliq siyosatini rivojlanish bosqichlari.
9. Davlat byudjeti xarajatlarini rejalashtirish.
10. Sug'urtaning rivojlanish bosqichlari.
11. Byudjet normalari(meyorlari), xarajatlar smetasi va byudjet krediti
12. Davlat byudjeti loyihasini tuzish.
13. Davlat krediti klassifikatsiyasi.
14. Uy xo'jaliklari daromadlari.
15. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar

**Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1.Qimmatli qog'ozlar bozorining turlari va ularning turkumlanishi;
2.Ulushga egalik qilish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozlar;
3.Aksiya bilan bog'liq bo'lgan hosilaviy qimmatli qog'ozlarlar;
4.Davlat moliyasi;
5.Davlat daromadlari;
6.Davlat xarajatlari;

| | |
|---|---|
| | 7.Davlat qarzlarining mohiyati va ahamiyati;<br>8.Davlat kreditining shakllari va tasniflanishi;<br>9.Davlat qarzlarini boshqarish;<br>10.Sug‘urta bozori;<br>11.Ijtimoiy sug‘urtaning turlari;<br>12.Tibbiy sug‘urta;<br>13.Davlat byudjetining xarajatlari;<br>14.Byudjet taqchilligi va uni boshqarish;<br>15.Byudjet tizimi va qurilishi.;<br>16.Xalqaro moliya(ning) asoslari va rivojlanish tendensiyalari;<br>17.Xalqaro moliya bilan bog‘liq munosabatlar;<br>18.Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi;<br>19.O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori;<br>20.Moliyaviy bozor va bunda tijorat banklarning roli;<br>21.Banklarning qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha tijorat va investitsion operatsiyalari;<br>22.Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan passiv operatsiyalari va ularning tarkibiy tuzilishi;<br>23.Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan aktiv operatsiyalari va ularning turkumlanishi;<br>24.Kredit riski mazmuni, baholash va uni boshqarish;<br>25.Foiz riski va uni boshqarish usullar;<br>26.Banklarning turlari va ular faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari;<br>27.Bank tizimi va uning elementlari;<br>28.Markaziy bank faoliyatining maqsadi va vazifalari.Markaziy bankning tashkiliy tuzilishi;<br>29.Markaziy bankning funksiyalari: emission funksiya; “banklarning banki” funksiyasi,“davlatning banki” funksiyasi, rasmiy oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish funksiyasi;<br>30.Valyuta bozori tushunchasi, uning institutsional tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari<br>31.Pul tizimining mazmuni va milliy xususiyatlari.<br>32.Depozit va kredit xizmatlari.<br>33.Kreditning mazmuni va unga bo’lgan zarurat.<br>34.Aholiga beriladigan kreditlarning asosiy shakllari va ulardan foydalanish.<br>35.Bank mijozlari va iste’molchilar.<br>36.Bank va mijozlar huquqlarini himoya qilish.<br>37.Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilishning obyektiv zarurati.<br>38.Sug’urta haqida tushuncha.<br>39.Shaxsiy sug’urta va uning turlari.<br>40. Sug’urta xizmatlari<br>41. Pulni saqlashning muqobil qiymati.<br>42. Pulga spekulyativ talab va qimmatli qogozlar daromadliligi darajasi o‘rtasidagi teskari bog‘liklik.<br>43.. Pulga talab funktsiyasi. Pulga talab egri chizig‘I grafigi.<br>44. Nominal foiz stavkasi va pulga talab. |

| | |
|---|---|
| | 45. To‘lov balansi taqchilligi. |
| 3. | **VII. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:**<br>- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi davlat moliyaviy salohiyatining asosi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy isloh qilish, ularning moliyaviy resurslari, asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishining moliyaviy jihatlari, ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabelligi, xo'jalik yurituvchi sub'ekt marketing strategiyasining moJiyaviy yo'nalishlari, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash investitsion dasturlarini moliyalashtirish, moliyaviy barqarorlikka tegishli holatlar **haqida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)**<br>- Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarini qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari haqida bilishi va ulardan **foydalana olishi; (ko‘nikma).**<br>-Konstitutsiyaviy-huquqiy analizni bilish, o‘qish davomida olgan bilimlarni kasbiy va jamiyat-siyosiy faoliyatda ijodiy qo‘llay bilish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan asosiy huquq va erkinliklarni professional faoliyatida, mamlakatning jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishda kvalifikatsion va professional qo‘llay bilish, Konstitutsiyaning asosiy qoidalari bo‘yicha tushuntirish ishlari olib bora olish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish, konstitutsiyaviy huquqning zamonaviy uslublarini qo‘llay olish haqida **malakalarga ega bo‘lishi kerak.** |
| 4. | **VIII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **IX. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **X. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Vaxabov A.V.Moliyaviy savodxonlik asoslari: o‘quv qo‘llanma.Toshkent-2013.<br>2. E. Hojiyev, O. Kamalov, B. Artikov. “Moliya huquqi”. Ma’ruzalar kursi. Toshkent. 2012.<br>3.A.V. Vahobov, T.S. Malikov. “Moliya” darslik. Toshkent. 2012.<br>4.Adik Li. O’zbekiston Respublikasi moliya huquqi. Toshkent.2004 |

| | |
|---|---|
| | **XI. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Gadoyev E.F., Qurbonov X.A. Moliya. - T. O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2005.- 189 b<br>2. Tuxliyev B.K., Qurbonov X.A., Bauyetdinov M.J., Bijanova M.B., Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010, 199 b.<br>3. Vaxabov A.V. va boshq. Xorijiy investitsiyalar. -T.: "Moliya", 2010. -328 b.<br>4. Agzamov A.T., Shomansurova Z.A. «Moliya va soliqlar» fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi. «Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. –T.: TDIU, 2010. 268.<br><br>**Axborot manbalari**<br>http://www.edu.uz–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.<br>http:www.uzedu.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.<br>http://www.gov.uz– O'zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>www.pedagog.uz<br>www.cspi.uz<br>www.pedagog.uz<br>www.edu.uz<br>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)<br>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali |
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "29" 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>I.X.Xakimova – CHDPU, Maktab menejmenti kafedrasi o`qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>O.A.Ortiqov - CHDPU, Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent<br>A.N.Maxmudov-TDIU, "Moliyaviy tahlil va audit" kafedrasi professori, I.f.d |